

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNI
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



“DAVOLASH ISHI” XIRURGIYA

TOSHKENT-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNI
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“Davolash ishi” (Xirurgiya) yo‘nalishi

“XIRURGIYA YO‘NALISHIDA DAVOLASHNING ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARI, MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA

TOSHKENT - 2026

Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Xirurgiya yo‘nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari”

Tuzuvchilar:

R.A Sadikov

Akademik V.Vaxidov nomidagi respublika
Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot
makazi t.f.d., professori

M.Sh.Xakimov

ToshDavTU “1-son fakultet va gospital jarrohlik”
kafedrasi mudiri, t.f.d., professor.

Taqrizchilar:

Irnazarov A.A.

Tashkent davlat tibbiyot universiteti №1-son
gospital xirurgiya kafedrasi t.f.d., professor

Xorijiy ekspert:

Uwe Eckelt

Germaniya yuz-jag‘ jarrohligi akademiyasining
ilmiy rahbari. t.f.d., professor

O‘quv uslubiy majmua Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi tarmoq markazining “Ta’lim texnologiyalari” kafedrasi yig‘ilishining bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan

MUNDARIJA

I.	<i>ISHCHI DASTUR.....</i>	<i>4</i>
II.	<i>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</i>	<i>16</i>
III.	<i>NAZARIY MATERIALLAR.....</i>	<i>19</i>
IV.	<i>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</i>	<i>53</i>
V.	<i>GLOSSARIY.....</i>	<i>88</i>
VI.	<i>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</i>	<i>90</i>

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda raqamli kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular mazmuni tinglovchilarning ta’lim jarayonini raqamlashtirish asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlarni amaliyotga tadbiq etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, masofiviy ta’lim texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslari asosida ta’lim jarayonini loyihalash, meta texnologiyalarni ta’limda samarali integratsiya qilish, ta’lim sohasida sun‘iy intellektdan foydalanish, masofiviy ta’lim platformalariga videokontent yaratish, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o‘qitish metodlarini qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: “Xirurgiya yo‘nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari” modulining maqsadi, Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

“Davolash ishi”(Xirurgiya) yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Davolash ishi”(Xirurgiya) yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Xirurgiya yo‘nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- xirurgik xasta va tormutaxassislik tarmoqlari shakllanishini bilishi kerak.
- xirurgik og‘ir kasalliklarni tashxislash va davolashda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish, xirurgiyada yuqori texnologik operativ muolajalarni o‘tkazish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- eng ko‘p tarqalgan kasalliklar profilaktikasi va ularni barvaqt aniqlashning sinovdan o‘tkazilgan ilg‘or xalqaro amaliyotini joriy etish. Respublikamizda tibbiyot sohasida olib borilayotgan islohatlarni xalqaro amaliyot bilan taqqoslash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- xirurgiyada yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etish, klinik fanlarda

bemorlarning tekshiruv natijalarini tahlil qila olish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Xirurgiya yo‘nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi.

“Xirurgiya yo‘nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Xirurgiya yo‘nalishining rivojlanish tendensiyalari” moduli bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonlarida raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarni qo‘llash mahoratlarini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni.

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlari, pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli didaktika, raqamli ta’limda pedagogik dizayn, zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish, masofaviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		Hammasi	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	XXI asr xirurgiyasining istiqbollari	6	2	4	
2.	Xirurgiyada tashxislash va davolashda raqamli va smart texnologiyalar o‘rni va axamiyati	10	4	6	
3.	Yuqori texnologiyali jarrohlik yo‘nalishlari– bugungi kun va kelajak talabi	6	4	2	
4.	Xirurgiyada zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar, yutuqlar va istiqbollari	6	4	2	
5.	Xirurgiyada nurli tashxislash va davolashning ilg‘or texnologiyalari	4	2	2	
6.	Intervension va metabolik xirurgiyaning imkoniyatlari va istiqbollari	2		2	
7.	Xirurgiyada ko‘p modalli tashxislash va tasviriy texnologiyalar	6			6
8.	Xirurgiyada yuqori texnologiyali jarrohlik davolash usullari	6			6
	Jami:	46	16	18	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: XXI asr xirurgiyasining istiqbollari. (2 soat)

XXI asr xirurgiyasi zamonaviy texnologiyalar, fan va klinik tajribaning chuqur integratsiyasi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda xirurgiya nafaqat operatsiya bajarish san'ati, balki yuqori aniqlikdagi tashxis, individual davolash rejalari va bemor xavfsizligini maksimal darajada ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks tibbiy yo'nalishga aylandi. XXI asr xirurgiyasining asosiy xususiyatlaridan biri — minimal invaziv va gibrid texnologiyalarning keng qo'llanilishidir. Laparoskopik, endoskopik, intervension va robot-assistirlangan operatsiyalar an'anaviy ochiq jarrohlikni tobora siqib chiqarmoqda. Bu usullar jarohatni kamaytirish, asoratlar sonini qisqartirish, rehabilitatsiya muddatini tezlashtirish va bemor hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Zamonaviy xirurgiya yuqori aniqlikdagi nurli va raqamli tashxislash texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. KT, MRT, UTT, intraoperatsion navigatsiya, sun'iy intellekt asosidagi tasvir tahlili jarrohga operatsiyani oldindan rejalashtirish va real vaqt rejimida optimal qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, XXI asr xirurgiyasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan ajralib turadi. Bemorning genetik, metabolik va funksional xususiyatlari hisobga olinib, davolash individual tarzda tanlanadi. Metabolik va bariatrik xirurgiya, rekonstruktiv va regenerativ yo'nalishlar aynan shu konsepsiyaning yorqin misolidir. Xulosa qilib aytganda, XXI asr xirurgiyasi — bu yuqori texnologiyali, ilmiy asoslangan, multidisiplinar va innovatsion yo'nalish bo'lib, uning asosiy maqsadi xavfsiz, samarali va bemor ehtiyojlariga mos jarrohlik yordamini ta'minlashdan iborat.

2-mavzu: Xirurgiyada tashxislash va davolashda raqamli va smart texnologiyalar o'rni va ahamiyati. (4 soat)

Elektrofiziologik tadqiqot usullarining paydo bo'lishi. Diagnostik muolajalarning asosiy yo'nalishlari va ularning talqini. Yurak xirurgiyasi, neyroxirurgiya, travmatologiya va boshqa elektrofiziologik tadqiqotlar samaradorligini baholash. mutaxassisliklar bo'yicha Xirurgiyada endovisual texnologiyalari. Xirurgik kasalliklarni tashxislashning endovisual usullarini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari. Tovush chiqarish, tovush turlari, axborotlarni tarjima qilish. Endovisual texnologiyalarni rivojlantirishning raqamli davriga analogdan o'tish. Xirurgiyaning yuqori ixtisoslashgan sohasida endoimaging texnologiyalari.

3-mavzu: Yuqori texnologiyali jarrohlik yo'nalishlari– bugungi kun va kelajak talabi. (4 soat)

Intervension jarrohlik. Endovaskulyar jarrohlikning asosiy xususiyati. Noyob endovaskulyar jarrohlik usullarining qo'llanilishi. Metabolik jarrohlik. Metabolik jarrohlikning ta'sir etish mexanizmi. Oshqozonni baypas operatsiyasi. Respublikamizda tibbiyot sohasida olib borilayotgan islohatlarni xalqaro amaliyot bilan taqqoslash. Xirurgiyada subspetsializatsiya bugungi kunda ancha muhim va

samarali jarayon bo'lib, u nafaqat jarrohlarning professionallik darajasini oshiradi, balki bemorlarning davolanish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Subspetsializatsiya - bu xirurgiyaning ma'lum bir sohasida chuqur bilimga ega bo'lish va faqat shu sohada faoliyat yuritish. Bugungi kunda va kelajakda xirurgiya sohasida subspetsializatsiya talabi bir necha asosiy omillarga tayanadi: Murakkab kasalliklar va maxsus yondoshuvlar: Zamonaviy tibbiyotda kasalliklar va ularning rivojlanishi yanada murakkablashmoqda. Masalan, saraton kasalliklarining turli turlari, yuqori xavfli jarrohlik holatlari, yoki genetika asosidagi kasalliklar. Har bir soha o'ziga xos bilimlarni talab qiladi va umumiy xirurg bo'lib, barcha sohalarda chuqur bilimga ega bo'lish qiyin. Shuning uchun, jarrohlar alohida subspetsializatsiyalarni rivojlantirib, masalan, neyroxirurgiya, onkologik jarrohlik, kardiotorasik jarrohlik kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqdalar.

4-mavzu: Xirurgiyada zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar, yutuqlar va istiqbollar. (4 soat)

Bugungi tibbiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy xirurgiya ilmiy asoslangan qaror qabul qilish, yuqori texnologiyali tashxis va davolash usullarining keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Minimal invaziv, gibrid va intervension texnologiyalar jarrohlik amaliyotining samaradorligi va xavfsizligini sezilarli darajada oshirdi. Ilmiy-uslubiy yondashuvlarning rivojlanishi jarrohlik natijalarini optimallashtirish, asoratlarni kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va multidisiplinar hamkorlik zamonaviy yutuqlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular kelajakda xirurgiyaning yanada aniq, individual va innovatsion yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi.

5-mavzu: Xirurgiyada nurli tashxislash va davolashning ilg'or texnologiyalari. (2 soat)

Zamonaviy tibbiyotda jarrohlik amaliyotining aniqligi va samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. KT, MRT, UTT, angiografiya va boshqa nurli tashxislash usullari kasalliklarni erta aniqlash, jarrohlik aralashuvini puxta rejalashtirish va intraoperatsion nazoratni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, lazer, radiochastotali va boshqa energiya asosidagi davolash texnologiyalarining joriy etilishi minimal invaziv yondashuvlarni kengaytirib, operatsion travmani kamaytiradi, asoratlar xavfini pasaytiradi va rehabilitatsiya jarayonini tezlashtiradi. Ilg'or nurli texnologiyalarni klinik amaliyotga integratsiya qilish xirurgiyada yuqori texnologiyali, xavfsiz va individual davolashni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: XXI asr xirurgiyasining istiqbollari. (4 soat)

Xirurgiya sohasidagi ilmiy-amaliy yangiliklar tibbiyotda yangiliklarni tatbiq etish va bemorlarni davolashda samarali metodlarni ishlab chiqish bilan bog'liq. So'nggi yillarda quyidagi ilmiy-amaliy yangiliklar mavjud: Kam invaziv jarrohlik usullari: Laparoskopiya, robotik jarrohlik va endoskopik amaliyotlar orqali bemorlarning tiklanish davri qisqarib, operatsiyadan keyingi asoratlar kamaygan. Bu usullar orqali, masalan, me'da osti bezi insulinomasini laparoskopik usulda enukleatsiya qilish kabi murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Buyrak transplantatsiyasi: O'zbekistonning ayrim tibbiyot markazlarida buyrak transplantatsiyasi amaliyoti joriy etildi. Bu operatsiyalar orqali o'zining buyragi ishlamay qolgan bemorlarga hayotini saqlab qolish imkoniyati yaratildi. Yuqori texnologik amaliyotlar: Xirurgiya markazlarida me'daning proksimal qismi o'smasida gastrektomiya, shuningdek, kam invaziv usullar orqali yuqori texnologik operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Tibbiy ko'riklar va mahalliy jarrohlik amaliyotlari: Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tumanlardagi bemorlarga tibbiy ko'riklar o'tkazib, turli darajadagi jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Robotik jarrohlik: Robotik tizimlar yordamida jarrohlik amaliyotlari yanada aniq va xavfsiz bo'lishi mumkin. Bu tizimlar murakkab operatsiyalarni bajarishda jarrohga katta yordam beradi. Intervension jarrohlik amaliyotini o'tkazishning yangiliklari. Yendovaskulyar jarrohlikning asosiy xususiyati. Noyob yendovaskulyar jarrohlik usullarining qo'llanilishi. Metabolik jarrohlik. Metabolik jarrohlikning ta'sir yetish mexanizmi. Oshqozonni baypas operatsiyasini o'tkazish.

2- amaliy mashg‘ulot: Xirurgiyada tashxislash va davolashda raqamli va smart texnologiyalar o'рни va ahamiyati. (6 soat)

Zamonaviy rekonstruktiv jarrohlik. Zararlangan organni tiklash yoki almashtirishga qaratilgan: protez tomirini, sun'iy yurak klapanini, churra darvozalarini sintetik to'r bilan mustahkamlash. Minimal invaziv (maydonni kamaytirishga qaratilgan), tanadagi aralashuvlar - mini-kirishlar, laparoskopik usullar, yendovaskulyar jarrohlik. Xirurgiya sohasidagi innovatsion texnologiyalar: NOTES, SILS, SPL, robototexnika, gibrid va boshqa texnologiyalar. Xirurgiya sohasida yangi tashxislash texnologiyalari bemorlarni aniqlik bilan baholash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bir qator innovatsion texnologiyalar joriy etilgan, ulardan ba'zilari quyidagilardir: Robotik tizimlar va assistentlar: Robotik jarrohlik tizimlari, masalan, da Vinci tizimi, jarrohning aniqroq va xavfsizroq operatsiyalarni amalga oshirishi uchun yordam beradi. Bu tizimlar orqali jarrohlik jarayonlari

yanada aniqlik va samaradorlikka erishiladi. Robotik tizimlar diagnostika va jarrohlik amaliyotlarida yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Endoskopiya va laparoskopiya: Endoskopik usullar orqali ichki organlarni bevosita tekshirish va tashxislash mumkin. Laparoskopik jarrohlikda kichik kesiklar orqali organlar va to'qimalar tekshiriladi, bu esa an'anaviy ochiq jarrohlikka nisbatan bemorning tiklanish davrini qisqartiradi. Biyomarkerlardan foydalanish: Zamonaviy laboratoriya tahlillari orqali kasalliklarni aniqlashda yangi biyomarkerlardan foydalanish kengaymoqda. Masalan, saraton kasalliklarini erta aniqlashda maxsus qon testlari va molekulyar diagnostika usullari ishlatiladi.

3-amaliy mashg'ulot: Yuqori texnologiyali jarrohlik yo'nalishlari– bugungi kun va kelajak talabi . (2 soat)

Jarrohlik bilan bog'liq sohalarga qorin bo'shlig'i xirurgiyasi. Torakal jarrohlik, urologiya, andrologiya, ginekologiya, neyroxirurgiya, angiologiya, kardiojarrohlik, yendokrinologiya, travmatologiya, ortopediya, plastik jarrohlik, komustsiologiya, transplantologiya, oftalmologiya, jag'-jild jarrohligi. Zamonaviy xirurgik yo'nalishlarning oldidagi muammolari va istiqbollari: mikroxirurgiya, transplantologiya, kaminvaziv xirurgiya, endoprotezlash. Xirurgiya sohasidagi innovatsion texnologiyalar: NOTES, SILS, SPL, rabototexnika, gibrid va boshqa texnologiyalar. Xirurgiyada subspetsializatsiya bugungi kunda ancha muhim va samarali jarayon bo'lib, u nafaqat jarrohlarning professionallik darajasini oshiradi, balki bemorlarning davolanish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Subspetsializatsiya - bu xirurgiyaning ma'lum bir sohasida chuqur bilimga ega bo'lish va faqat shu sohada faoliyat yuritish. Bugungi kunda va kelajakda xirurgiya sohasida subspetsializatsiya talabi bir necha asosiy omillarga tayanadi: Murakkab kasalliklar va maxsus yondoshuvlar: Zamonaviy tibbiyotda kasalliklar va ularning rivojlanishi yanada murakkablashmoqda. Masalan, saraton kasalliklarining turli turlari, yuqori xavfli jarrohlik holatlari, yoki genetika asosidagi kasalliklar. Har bir soha o'ziga xos bilimlarni talab qiladi va umumiy xirurg bo'lib, barcha sohalarda chuqur bilimga ega bo'lish qiyin. Shuning uchun, jarrohlar alohida subspetsializatsiyalarni rivojlantirib, masalan, neyroxirurgiya, onkologik jarrohlik, kardiotorasik jarrohlik kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqdalar.

4- amaliy mashg'ulot Xirurgiyada zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar, yutuqlar va istiqbollar. (2 soat)

Jarrohlik amaliyotining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ifodalaydi. Ilmiy asoslangan yondashuvlar, dalillarga tayangan qaror qabul qilish va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi operatsiyalar xavfsizligi hamda samaradorligini oshirmoqda. Minimal invaziv, gibrid va intervension texnologiyalar, shuningdek

raqamli tashxislash va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar zamonaviy yutuqlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar bemor ehtiyojlariga mos, individual va yuqori texnologiyali jarrohlik yordamini ta'minlab, kelajakda xirurgiyaning yanada innovatsion va multidisiplinar yo'nalishda rivojlanishiga keng istiqbollari yaratadi.

5- amaliy mashg'ulot: Xirurgiyada nurli tashxislash va davolashning ilg'or texnologiyalari. (2 soat)

Zamonaviy tibbiyotning eng tez rivojlanayotgan va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jarrohlik amaliyoti yuqori aniqlikdagi nurli tashxislash usullarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT), ultratovush tekshiruvi (UTT), angiografiya va boshqa tasviriy texnologiyalar patologik jarayonlarni erta aniqlash, kasallikning tarqalish darajasini baholash va optimal jarrohlik taktikasini tanlash imkonini beradi. Ushbu usullar jarrohga operatsiyadan oldin aniq rejalashtirish, asoratlar xavfini kamaytirish va davolash natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Nurli tashxislash bilan bir qatorda, energiya asosidagi davolash texnologiyalari ham xirurgiyada keng qo'llanilmoqda. Lazer, radiochastotali, ultratovushli va boshqa zamonaviy usullar minimal invaziv yondashuvlarni amalga oshirish imkonini berib, operatsion travmani kamaytiradi, qon yo'qotilishini cheklaydi va bemorning tezroq sog'ayishiga yordam beradi. Ayniqsa, lazer texnologiyalarining joriy etilishi ko'plab jarrohlik sohasida yuqori aniqlik, nazorat qilinadigan ta'sir va to'qimalarni maksimal darajada saqlab qolish imkonini yaratdi. Ilg'or nurli tashxislash va davolash texnologiyalarini klinik amaliyotga integratsiya qilish xirurgiyada shaxsga yo'naltirilgan, xavfsiz va samarali tibbiy yordamni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan uyg'unlashgan holda ushbu yo'nalishning yanada rivojlanishi xirurgiya sifatini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Xirurgiyada raqamli texnologiyalar. Raqamli texnologiyalarning diagnostika imkoniyatlari. Kompleks anatomik zonalar xirurgiyasida xirurgiyani rejalashtirishda halografik texnologiyalardan foydalanish. Ichki organlarning jarrohlik operatsiyalarini rejalashtirish va transplantatsiya qilish uchun patologik ko'rinishi bo'lgan modellaridan foydalanish xususiyatlari. Xirurgiya sohasida yangi tashxislash texnologiyalari bemorlarni aniqlik bilan baholash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bir qator innovatsion texnologiyalar joriy etilgan, ulardan ba'zilar quyidagilardir:

Robotik tizimlar va assistentlar: Robotik jarrohlik tizimlari, masalan, da Vinci tizimi, jarrohning aniqroq va xavfsizroq operatsiyalarni amalga oshirishi

uchun yordam beradi. Bu tizimlar orqali jarrohlik jarayonlari yanada aniqlik va samaradorlikka erishiladi. Robotik tizimlar diagnostika va jarrohlik amaliyotlarida yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

Endoskopiya va laparoskopiya: Endoskopik usullar orqali ichki organlarni bevosita tekshirish va tashxislash mumkin. Laparoskopik jarrohlikda kichik kesiklar orqali organlar va to'qimalar tekshiriladi, bu esa an'anaviy ochiq jarrohlikka nisbatan bemorning tiklanish davrini qisqartiradi.

Biyomarkerlardan foydalanish: Zamonaviy laboratoriya tahlillari orqali kasalliklarni aniqlashda yangi biyomarkerlardan foydalanish kengaymoqda. Masalan, saraton kasalliklarini erta aniqlashda maxsus qon testlari va molekulyar diagnostika usullari ishlatiladi.

6- amaliy mashg'ulot: Intervension va metabolik xirurgiyaning imkoniyatlari va istiqbollari. (2 soat)

Zamonaviy tibbiyotda muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Intervension xirurgiya minimal invaziv usullar yordamida yuqori xavfsizlik va aniqlikni ta'minlab, ko'plab kasalliklarni katta jarrohlik aralashuvisiz davolash imkonini beradi. Metabolik (bariatrik) xirurgiya esa metabolik sindrom, semizlik va 2-toifa qandli diabetni kompleks davolashda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Ushbu yo'nalishlarning asosiy imkoniyatlari — operatsion travmaning kamayishi, reabilitatsiya muddatining qisqarishi va bemor hayot sifatining yaxshilanishidir. Kelajakda gibridd texnologiyalar, raqamli navigatsiya va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning rivojlanishi intervension va metabolik xirurgiyaning klinik qo'llanilishini yanada kengaytirib, ularning istiqbollari yanada mustahkamlashi kutilmoqda.

Ko'chma mashg'ulot mazmuni

“Xirurgiya yo'nalishida davolashning zamonaviy texnologiyalari, muammolari va ularning yechimlari” modulida ko'chma mashg'ulotlar zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan sohaning etakchi korxonalarida va laboratoriyalarida olib boriladi.

1-ko'chma mashg'ulot: Xirurgiyada ko'p modalli tashxislash va tasviriy texnologiyalar.(6 soat)

Elektrofiziologik tadqiqot usullarining paydo bo'lishi tarixi. Diagnostik muolajalarning asosiy yo'nalishlari va ularning talqini. Yurak xirurgiyasi, neyroxirurgiya, travmatologiya va boshqa elektrofiziologik tadqiqotlar samaradorligini baholash. mutaxassisliklar bo'yicha Xirurgiyada endovisual texnologiyalari. Xirurgik kasalliklarni tashxislashning endovisual usullarini ishlab

chiqishning asosiy bosqichlari. Tovush chiqarish, tovush turlari, axborotlarni tarjima qilish. Endovisual texnologiyalarni rivojlantirishning raqamli davriga analogdan o'tish. Xirurgiyaning yuqori ixtisoslashgan sohasida endoimaging texnologiyalari. Zamonaviy xirurgiyada tashxislash va davolashda raqamli va smart texnologiyalar (dijital texnologiyalar) ning o'rni va ahamiyati katta. Ular jarrohlik amaliyotlarining samaradorligini oshiradi, bemorlarning tiklanish vaqtini qisqartiradi, xatoliklarni kamaytiradi va davolash sifatini yaxshilaydi. Raqamli va smart texnologiyalar nafaqat jarrohlarga yordam beradi, balki bemorlar uchun xavfsiz va tezkor davolash imkoniyatlarini yaratadi. Quyidagi sohalarda ularning ahamiyati juda yuqori: Tasvirlash tizimlari (CT, MRI, PET, Ultrasonografiya): Zamonaviy tasvirlash texnologiyalari aniq va batafsil tasvirlar olish imkonini beradi. Masalan, 3D tomografiya va magnet-rezonans tomografiyasi (MRI) yordamida ichki organlarning yuqori sifatli tasvirlari olinadi, bu esa jarrohlarga operatsiya rejasini aniq tuzishda yordam beradi.

AI (Sun'iy intellekt) va Machine Learning: Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish texnologiyalari diagnostikada yanada kuchli vositalar hisoblanadi. Misol uchun, radiologik tasvirlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt yordamida saraton kabi kasalliklar erta bosqichda aniqlanishi mumkin.

Dijital patologiya: Kasalliklarni aniqlashda raqamli mikroskopiya va tasvirlarni tahlil qilish texnologiyalari kengaymoqda. Bu metodlar patologlarning ishini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi.

2-ko'chma mashg'ulot. Xirurgiyada yuqori texnologiyali jarrohlik davolash usullari. (6 soat)

Xirurgiyada subspetsializatsiya – bu tibbiyotning ayrim sohalarida chuqur ixtisoslashishni anglatadi. Bugungi kunda bu yondashuv xirurgiya amaliyotlarining samaradorligini oshirish va murakkab tibbiy holatlarda yuqori sifatli davolashni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Subspetsializatsiya sohasidagi bugungi kun va kelajak talablari quyidagilardan iborat: Murakkab kasalliklarni davolash: Zamonaviy tibbiyotda kasalliklar ko'pincha murakkab va xilma-xil bo'lib, birgina umumiy xirurgning barcha sohalarida chuqur bilimga ega bo'lishi qiyin. Shuning uchun subspetsializatsiya orqali, masalan, neyroxirurgiya, kardiotorasik xirurgiya, travmatologiya, onkologiya kabi alohida yo'nalishlarda mutaxassislar shakllanadi. Bu esa har bir sohada yuqori darajadagi tibbiy yordamni ta'minlash imkonini beradi.

Yuqori texnologiyalardan foydalanish: Kam invaziv jarrohlik, robotik jarrohlik, 3D tasvirlash texnologiyalari va boshqa zamonaviy usullar subspetsializatsiyaga bo'lgan talabni oshirgan. Har bir texnologiya o'ziga xos bilimlarni talab qiladi va bu sohada o'ziga xos mutaxassislarni shakllantirishga sabab bo'ladi.

Individual yondoshuv: Har bir bemor va uning holati o'ziga xos. Subspetsializatsiya orqali xirurglar faqat biror bir kasallik yoki jarrohlik amaliyotining maxsus jihatlari bilan shug'ullanishadi va har bir bemor uchun individual davolash rejasini ishlab chiqishadi.

Tez rivojlanayotgan ilmiy tadqiqotlar: Xirurgiya sohasida ilmiy tadqiqotlar tez rivojlanmoqda. Shuning uchun yangi ilmiy ma'lumotlarga asoslangan subspetsializatsiyalar zarur. Masalan, genetik tadqiqotlar, robotik tizimlar, nanoteknologiya kabi yangi sohalar xirurgiyaning an'anaviy usullaridan ajralib turadi va ularga alohida mutaxassislar kerak.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

«CLINICAL REASONING CYCLE 2.0» usuli

Clinical Reasoning Cycle 2.0 — bu zamonaviy interaktiv o‘qitish usuli bo‘lib, tibbiy ta’limda klinik fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirish, murakkab klinik holatlarni chuqur tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu usul an’anaviy klinik mulohaza yuritish bosqichlarini raqamli texnologiyalar, dalillarga asoslangan tibbiyot va reflektiv tahlil bilan boyitadi. Clinical Reasoning Cycle 2.0 usuli shifokorlarni bemor holatini har tomonlama baholash, klinik ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish va individual davolash strategiyasini ishlab chiqishga o‘rgatadi. Ushbu yondashuv ayniqsa xirurgiya, ichki kasalliklar, shoshilinch tibbiyot va intensiv terapiyada samarali hisoblanadi.

Metodning maqsadi: Clinical Reasoning Cycle 2.0 usuli tibbiy ta’limda klinik tafakkurni chuqurlashtiruvchi, mantiqiy fikrlash va mas’uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantiruvchi samarali interaktiv yondashuvdir. Ushbu metod shifokorlarni zamonaviy tibbiyot sharoitida murakkab klinik vaziyatlarga tayyorlaydi hamda xavfsiz va samarali tibbiy yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi

Clinical Reasoning Cycle 2.0 usulining bosqichlari

1. Klinik vaziyat bilan tanishish

Bemor haqidagi asosiy ma’lumotlarni (shikoyatlar, anamnez, dastlabki ko‘rsatkichlar) aniqlash.

2. Ma’lumotlarni yig‘ish

Klinik ko‘rik, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini tizimli ravishda to‘plash.

3. Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish

Olingan ma’lumotlarni solishtirish, muhim belgilarni ajratib ko‘rsatish va ehtimoliy tashxislarni shakllantirish.

4. Muammolarni aniqlash

Asosiy va ikkilamchi klinik muammolarni belgilash.

5. Davolash rejasini ishlab chiqish

Dalillarga asoslangan tashxis va davolash taktikasini tanlash.

6. Amalga oshirish va kuzatish

Tanlangan davolash choralarini bajarish va bemor holatini monitoring qilish.

7. Natijalarni baholash

Davolash samaradorligini va yuzaga kelgan asoratlarni baholash.

8. Refleksiya va qayta o'rganish

Qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish, xatolar va yutuqlar asosida kelgusidagi klinik yondashuvni takomillashtirish.

“SWOT TAHLILI” usuli

“SWOT taxlil” usuli birinchi bo‘lib Garvardda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda biznes-siyosatshunos professor Kennet Endryus (inglizcha *Kenneth Andrews*) tomonidan kiritilgan bo‘lib, asosan iqtisodiyot sohasida kompaniyalar va biznes loyihalarni strategik rejalash va baholash uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik bu usul boshqa sohalarda ham qo‘llanila boshlandi. Tibbiyotda esa “SWOT taxlili” tashxisot va davolash usullarini, profilaktik chora tadbirlar taxlilida qulay usul hisoblanadi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

“SWOT” qisqartmasi quyidagi inglizcha so‘zlarning bosh xarfidan olingan:

S –	• kuchli
W –	• zaif, kuchsiz
O –	• imkoniyatlar
T –	• xavf va

Bunday taxlil orqali tinglovchilar biror bir usulning kuchli tomonlari bilan birga uning zaif tomonlarini ham o‘rganadilar, bu usul imkoniyatlari bilan unga nisbatan to‘siqlar va xavflarni taxlil qiladilar.

Tepadagi ikkita katakda taxlil etilayotgan usulning yoki ob‘ektning kuchli va kuchsiz tomonlari ifodalanadi va ular ichki omillar hisoblanadi. Pastdagi ikkita katakda taxlil etilayotgan ob‘ektning imkoniyatlari va unga nisbatan mumkin bo‘lgan to‘siq va xavflar ifodalanadi va ular tashqi omillar hisoblanadi.

“SNAPPS» USULI (SUMMARIZE – NARROW – ANALYZE – PROBE – PLAN – SELF-DIRECTED LEARNING) usuli

SNAPPS usuli — bu zamonaviy interaktiv o‘qitish usuli bo‘lib, tibbiy ta’limda klinik fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va faol o‘rganishni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu usul ayniqsa xirurgiya, terapiya va klinik fanlarda keng qo‘llaniladi, chunki u shifokorlarni real klinik vaziyatlarda tahliliy va asoslangan yondashuvga o‘rgatadi. SNAPPS usulining asosiy xususiyati shundaki, unda ta’lim oluvchi passiv tinglovchi emas, balki klinik muhokamaning faol ishtirokchisi hisoblanadi. O‘qituvchi esa nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi.

Metodning maqsadi: SNAPPS usuli tibbiy ta’limda klinik fikrlashni faollashtiruvchi, mantiqiy tahlil va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiruvchi samarali interaktiv yondashuv hisoblanadi. Ushbu usul shifokorlarning professional tayyorgarligini oshirishga, klinik qarorlar sifatini yaxshilashga va zamonaviy tibbiyot talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi

SNAPPS usulining bosqichlari

1. **S – Summarize (Xulosa qilish)**
Klinik holatni qisqa va aniq bayon qilish.
2. **N – Narrow (Toraytirish)**
Differensial tashxisni 2–3 eng ehtimolli variantgacha qisqartirish.
3. **A – Analyze (Tahlil qilish)**
Har bir tashxis yoki taktik variantning afzallik va kamchiliklarini asoslash.
4. **P – Probe (Savol berish)**
Murakkab va noaniq jihatlar bo‘yicha o‘qituvchiga maqsadli savollar berish.
5. **P – Plan (Reja tuzish)**
Tashxislash va davolash rejasini taklif etish.
6. **S – Self-directed learning (Mustaqil o‘rganish)**
Qo‘shimcha o‘rganilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni aniqlash.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: XXI asr xirurgiyasining istiqbollari. (2 soat)



XXI asr xirurgiyasi tibbiyot fanining eng tez rivojlanayotgan va innovatsion yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy-texnologik taraqqiyot, raqamli texnologiyalar, biologiya va muhandislik fanlarining integratsiyasi natijasida xirurgiya anʼanaviy jarrohlik amaliyotidan yuqori texnologiyali, aniq va shaxsga yoʻnaltirilgan tibbiy yordam koʻrsatish tizimiga aylandi. Bugungi kunda xirurgiyaning asosiy maqsadi faqat kasallikni bartaraf etish emas, balki bemor hayot sifatini maksimal darajada saqlab qolish, asoratlarni kamaytirish va davolash samaradorligini oshirishdan iborat.

XXI asr xirurgiyasining muhim yoʻnalishlaridan biri — minimal invaziv va gibril texnologiyalarning keng joriy etilishidir. Laparoskopik, endoskopik, intervension va robot-assistirlangan operatsiyalar jarrohlik travmasini sezilarli darajada kamaytirib, bemorlarning tezroq sogʻayishiga imkon yaratmoqda. Ushbu yondashuvlar qon yoʻqotilishini kamaytirish, operatsiyadan keyingi ogʻriqlarni qisqartirish va shifoxonada qolish muddatini kamaytirish bilan ajralib turadi. Gibril xirurgiya esa bir vaqtning oʻzida jarrohlik, endoskopik va intervension usullarni uygʻunlashtirib, murakkab klinik holatlarda yuqori samaradorlikni taʼminlamoqda.

Zamonaviy xirurgiyaning istiqbollarini belgilovchi yana bir muhim omil — nurlil va raqamli tashxislash texnologiyalarining rivojlanishidir. Kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya, yuqori aniqlikdagi ultratovush tekshiruvlari, intraoperatsion navigatsiya va 3D modellashtirish jarrohlarga operatsiyani oldindan puxta rejalashtirish imkonini beradi. Sunʼiy intellekt asosidagi tasvirlarni tahlil qilish tizimlari tashxis qoʻyish aniqligini oshirib, klinik qaror qabul

qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda. Kelajakda bu texnologiyalar xirurgiyaning yanada aniq va xavfsiz bo‘lishini ta‘minlashi kutilmoqda.

XXI asr xirurgiyasining muhim istiqbollardan biri — shaxsga yo‘naltirilgan va dalillarga asoslangan yondashuvdir. Har bir bemorning anatomik, fiziologik, metabolik va genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual davolash strategiyasini tanlash zamonaviy xirurgiyaning asosiy tamoyiliga aylanmoqda. Metabolik va bariatrik xirurgiyaning rivojlanishi semizlik, metabolik sindrom va 2-toifa qandli diabet kabi kasalliklarni kompleks davolashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu yo‘nalishlar nafaqat vazn kamaytirishga, balki metabolik jarayonlarni normallashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, XXI asr xirurgiyasi regenerativ tibbiyot va to‘qima muhandisligi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Ildiz hujayralar, biologik implantlar, biokompatibil materiallar va 3D-bosma texnologiyalar jarrohlik amaliyotida yangi ufqlarni ochmoqda. Bu yondashuvlar organ va to‘qimalarni tiklash, rekonstruktiv operatsiyalar natijalarini yaxshilash hamda jarrohlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy xirurgiyaning istiqbollari nafaqat texnologik rivojlanish, balki ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bilan ham chambarchas bog‘liq. Simulyatsion o‘qitish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, interaktiv klinik o‘qitish usullari jarrohlarning amaliy ko‘nikmalarini xavfsiz muhitda rivojlantirishga imkon bermoqda. Bu esa kelajakda tibbiy xatolarni kamaytirish va bemor xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Tashxislash uchun kullaniladigan barcha tekshirish usullari bugungi kunda ikkita asosiy guruxga bulinadi: invaziv va noinvaziv. Invaziv usullarga endoskopiya, biopsiya, angiografiya, eksploratsiya, punksiya kabi usullar kiradi. Noinvaziv tekshirish usullarga esa rentgenologik tekshirish, kompyuter tomografiya, magnit rezonans tomografiya, ultratovush bilan tekshirish, teplovizion tekshirishlar va radionuklid diagnostika misol bula oladi.

Xirurgiyada tekshirish usullari shu fanning rivojlanish boskichlari bilan chambarchas bog‘likdir. Tarixiy boskichlari kuyidagilardan iborat: empirik davr, anatomik davr, buyuk ixtirolar davri va fiziologik davri. SHuni aytib utish kerakki, bugungi kunda XXI asr istikbolida kichik invaziv va gibrud tashxislash usullar xam keng kirib kelishmokda.

Elektrofiziologik usullarga kuyidagilar kiradi: elektrokardiografiya, elektroensefalografiya, elektoretinografiya, elektrodermatografiya, reografiya, elektrogastroenterografiya, elektromiografiya. Ilk bor elektrokardiogrammalar

Gabriel Lippman tomonidan simobli elektrometr erdamida ezib olingan. Ular monofazali tavsifga ega bulib zamonaviy elektrokardiografiyadan ancha uzok bulgan. Villem Eyntxoven tomonidan esa okimli gavanometr yasalgan. Bu uskuna erdamina xakikiy elektrokardiografiya olish iloji paydo bulgan. Aynan shu olim tomonidan bugungi kungacha ishlatib kelinadigan tashxislash tishlari va yurak faoliyatining ba'zi buzilish xolatlariga baxo berilgan. U 1924 yilda shu ixtirosi uchun tibbiyot yunalishi buyicha Nobel laureatiga sazovor bulgan. Bosh miyani elektrik jaraenlarini 1849 yilda D. Reymon tomondan ishlab chikilgan. U tekshirishlar utkazishi natijasida bosh miya, nerv tolalari va mushaklarni elektrogen xususiyatiga ega ekanligini isbotlab bergan. Elektroensefalografik tekshiruvlarga asos solgan olim V.V. Pravdich-Neminskiy bulib xisoblanadi. U tomondan 1913 yilda birinchi elektroensefalogramma ezib olingan. Uzining tekshirishlarida u okimli galvanometrdan foydalangan va elektrotserebrogramma degan atamani tibbiyotga kiritgan. Birinchi elektroensefalografiya 1928 yilda nemets psixiatr Gans Berger tomonidan ezib olingan. Bu tekshirish usuliga elektroensefalogramma deb nom bergan. 1934 yilda Edrian va Mettyus Kembridj fiziologik anjumanda “Berger ritmlarini” anik va dalilli namoyish kilishgan.

Qon tomir jarrohligi: (obliteratsiya qiluvchi ateroskleroz, periferik arterial okklyuziya, o'pka emboliya, qorin ishemik sindromi) Gepatologiya: (jigar sirrozi, asosiy va metastatik jigar saratoni). Shuningdek, endovaskulyar usul qon kasalliklari, vazorenal gipertenziya, bachadon miomasi, prostata adenomasi va yaqin vaqtgacha jiddiy jarrohlik aralashuvini o'z ichiga olgan boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Balonli angioplastika va endoprotezni (stentni) implantatsiya qilish kabi endovaskulyar jarrohlik usullari - stentlash, embolizatsiya va boshqa (stentlardan tashqari) kon tomirlarini o'rnatish - o'zlarini yaxshi isbotladilar. Balonli angioplastika va stentlash usuli yurakning ishemik kasalligi, pastki ekstremitalar arteriyalarining aterosklerozi va boshqalar kabi kasalliklarning asosiy sababi bo'lgan toraygan yoki tiqilib qolgan tomirlarning o'tkazuvchanligini tiklashga imkon beradi, embolizatsiya, aksincha, tomirlarni to'sib qo'yish uchun ishlatiladi. Ushbu usul turli xil lokalizatsiyali qon ketishi bo'lgan bemorlarni davolashda, varikotsel, tos varikoz kengayishi, bachadon miomasi, portal gipertoniya sindromini davolashda, o'smalarni kompleks davolashda keng qo'llaniladi. Qon tomirlari ichidagi vositalarni o'rnatish (kava filtrlari, stent filtrlari va boshqalar) bir qator kasalliklarni davolash yoki asoratlarni oldini olishning samarali usuli hisoblanadi.

Metabolik jarrohlik asoslari

Metabolik jarrohlik - bu funktsiyani tiklash yoki metabolik tizimni normallashtirishga qaratilgan jarrohlik aralashuv usuli. Hozirgi vaqtda ushbu atama asosan kasallangan semirish, 2-toifa diabet mellitus va giperxolesterinemiya bilan

og'riq bemorlarda lipid anomaliyalari mavjudligida metabolik sindrom kabi muammolarga nisbatan qo'llaniladi. Ahamiyati jihatidan bu erda birinchi o'rin, shubhasiz, dunyodagi keng tarqalishi, og'ir asoratlari, nogironligi va o'limi bilan insoniyat uchun nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammo bo'lgan 2-toifa qandli diabetdir.

Ahamiyati

Hozirgi vaqtda 2-toifa diabetni davolaydigan konservativ davo usullari mavjud emas. Shu bilan birga, oshqozon va biliopankreatik manevr shaklida metabolik jarrohlik to'liq davolanishga juda katta imkoniyat beradi. Ushbu operatsiyalar endi ortiqcha vazni tubdan davolash uchun juda keng qo'llaniladi. Ma'lumki, 2-toifa diabet ortiqcha vaznli bemorlarda hamrohlik qiladigan patologiya sifatida juda keng tarqalgan. Ma'lum bo'lishicha, bunday operatsiyalarni bajarish nafaqat vazni normallashtirishga olib keladi, balki 80-98% hollarda diabetni to'liq

davolaydi. Ushbu dalil nafaqat semirish bilan, balki normal og'irlik bilan yoki o'rtacha og'irlikdagi tana vaznida (25-30 BMI bilan) bemorlarda bunday turdagi metabolik jarrohlikni 2-toifa qandli diabet kasalligini radikal davolash uchun qo'llash bo'yicha tadqiqotlar uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi. Metabolik jarrohlikning ta'sir mexanizmi bo'yicha intensiv tadqiqotlar olib borilmoqda. Dastlab, vazn yo'qotish glyukemiyaning normallashtirishida etakchi mexanizm hisoblanadi. Ammo ma'lum bo'lishicha, glysemiya va glyatsatlangan gemoglobin normallashtirish oshqozon yoki biliopankreatik bypass operatsiyasidan deyarli darhol, hatto tana vazni pasayishidan oldin sodir bo'ladi. Ushbu fakt bizni operatsiyaning metabolizmga ijobiy ta'siri uchun boshqa tushuntirishlarni izlashga majbur qildi. Hozirgi vaqtda operatsiyaning asosiy mexanizmi o'n ikki barmoqli ichakni oziq-ovqat mahsulotidan chiqarib tashlashdir. Oshqozonni aylanib o'tish operatsiyasida ovqat to'g'ridan-to'g'ri ichakka yo'naltiriladi. Ichakning shilliq qavatiga oziq-ovqatning bevosita ta'siri inkretinlarga tegishli glyukagonga o'xshash peptid-1 (GLP-1) ning sekretsiasiga olib keladi. Ushbu peptid bir qator xususiyatlarga ega. Glyukoza miqdori ko'tarilganda insulin ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Bu oshqozon osti bezi beta hujayralarining o'sishini rag'batlantiradi (ma'lumki, 2-toifa diabetda beta-hujayralar apoptozi kuchayadi). Beta hujayralar havzasini tiklash juda ijobiydir. GLP-1 jigarda glyukagon bilan stimulyatsiya qilingan glyukoza ishlab chiqarishni bloklaydi. GLP-1 gipotalamusning yoy yadrosini rag'batlantirish orqali to'yishni ta'minlaydi.

Klinik tadqiqotlar.

Oshqozonni aylanib o'tish operatsiyasi 50 yildan ortiq tarixga ega. Ushbu turdagi metabolik jarrohlikning diabet mellitus kursiga ijobiy ta'siri ko'plab tana vaznini kamaytirishga qaratilgan operatsiyalarning uzoq muddatli natijalari o'rganilgan ko'plab klinik tadqiqotlar bilan bir necha bor tasdiqlangan. Qandli diabetning to'liq davolanishi me'da-bypass operatsiyasidan so'ng bemorlarning 85 foizida va biliopankreatik bypass operatsiyasidan keyin 98 foizida kuzatilganligi ko'rsatilgan. Ushbu bemorlar har qanday dori terapiyasidan butunlay voz kechishga muvaffaq bo'lishdi. Qolgan 2-15% antidiyabetik dorilar dozasining pasayishi ko'rinishida sezilarli ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Uzoq muddatli natijalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, gastrik bypass o'tkazilgan guruhda diabet mellitus asoratlaridan o'lim konservativ davo o'tkazilgan guruhga nisbatan 92% kam. Klinik tadqiqotlar o'tkazildi, unda metabolik jarrohlikning normal tana vazniga ega bo'lgan va o'rtacha og'irligi (BMI 30 yoshgacha) bo'lgan bemorlarda 2-toifa diabetga ta'sirini o'rganildi. Ushbu tadqiqotlar ushbu toifadagi bemorlarda 2-toifa diabet uchun 90% davolashning ijobiy natijalarini va qolgan 10% da ijobiy dinamikani to'liq takrorladi. Shunga o'xshash natijalar o'spirin bemorlarda oshqozonni aylanib operatsiyadan so'ng diabetning ikkinchi turini davolash bo'yicha olingan. Agar

diabet bilan ogʻrigan bemorning tana massasi indeksi 35 va undan yuqori boʻlsa, operatsiya aniq koʻrsatilgan deb hisoblanadi. Shu bilan birga, vaziyat normal yoki oʻrtacha ogʻirlikdagi bemorlarga tegishli boʻlsa, jarrohlik operatsiyalari xavfini va diabetni davolash orqali olinishi mumkin boʻlgan ijobiy taʼsirlarni baholash zarur. Hatto vakolatli konservativ terapiyani amalga oshirish diabetning asoratlarining (diabetik retinopatiya, nefropatiya, neyropati va angiopatiya ularning ogʻir oqibatlarining butun spektri bilan) ishonchli oldini olish emasligini hisobga olsak, metabolik jarrohlikdan foydalanish ushbu turdagi 2-toifa diabet mellitusli bemorlar guruhida ham istiqbolli davolash usuli boʻlib chiqishi mumkin. ...

Hozirgi vaqtda, 2-toifa diabetga chalingan bemorlarda BMI 35 dan kam boʻlgan bemorga operatsiya koʻrsatiladi, agar u ogʻzaki dorilar yordamida kasallikning oʻrnini qoplay olmasa va insulin tayinlanishiga murojaat qilish zarur boʻlsa. Qandli diabet bilan ogʻrigan bemorda kasallikning etakchi mexanizmi insulin etishmovchiligi emas, balki insulin qarshiligi boʻlganligi sababli, qoʻshimcha ekzogen insulinning bunday tayinlanishi hech qanday tarzda kasallik sababiga qaratilgan aniq majburiy chora boʻlib tuyuladi. Boshqa tomondan, bypass operatsiyasini bajarish glyukemiya darajasini normallashtirish bilan bir vaqtda insulin qarshiligini olib tashlashga olib keladi. Masalan, Ballanthyne GH va boshqalarning ishlarida, oshqozonni chetlab oʻtishdan oldin va keyin bemorlarda insulin qarshiligi darajasi klassik HOMA-IR usuli yordamida oʻrganilgan. Jarrohlikdan oldin HOMA darajasi oʻrtacha 4,4 boʻlganligi va oshqozonni aylanib oʻtish operatsiyasidan keyin u oʻrtacha 1,4 ga kamaygani koʻrsatildi, bu normal oraliqda. Uchinchi guruh koʻrsatkichlari - bu insulin olmaydigan BMI 23-35 boʻlgan diabet mellitusli bemorlarda bypass operatsiyasi. Ushbu bemorlar guruhi hozirda tadqiqot guruhidir. Oddiy yoki ozgina ortiqcha vaznli bemorlar bor, ular diabet muammosini tubdan hal qilishni istaydilar. Ular ana shunday tadqiqotlarga kiritilganlar. Olingan natijalar juda umid baxsh etadi - ushbu guruhdagi diabetning barqaror klinik va laborator remissiyasi barcha bemorlarda erishiladi.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-ko‘chma mashg‘ulot: Xirurgiyada ko‘p modalli tashxislash va tasviriy texnologiyalar.(6 soat)

Elektrofiziologik tadqiqot usullarining paydo bo'lishi tarixi. Diagnostik muolajalarning asosiy yo'nalishlari va ularning talqini. Yurak xirurgiyasi, neyroxirurgiya, travmatologiya va boshqa elektrofiziologik tadqiqotlar samaradorligini baholash. mutaxassisliklar bo'yicha Xirurgiyada endovisual texnologiyalari. Xirurgik kasalliklarni tashxislashning endovisual usullarini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari. Tovush chiqarish, tovush turlari, axborotlarni tarjima qilish. Endovisual texnologiyalarni rivojlantirishning raqamli davriga analogdan o'tish. Xirurgiyaning yuqori ixtisoslashgan sohasida endoimaging texnologiyalari. Zamonaviy xirurgiyada tashxislash va davolashda raqamli va smart texnologiyalar (dijital texnologiyalar) ning o‘rni va ahamiyati katta. Ular jarrohlik amaliyotlarining samaradorligini oshiradi, bemorlarning tiklanish vaqtini qisqartiradi, xatoliklarni kamaytiradi va davolash sifatini yaxshilaydi. Raqamli va smart texnologiyalar nafaqat jarrohlarga yordam beradi, balki bemorlar uchun xavfsiz va tezkor davolash imkoniyatlarini yaratadi. Quyidagi sohalarida ularning ahamiyati juda yuqori: Tasvirlash tizimlari (CT, MRI, PET, Ultrasonografiya): Zamonaviy tasvirlash texnologiyalari aniq va batafsil tasvirlar olish imkonini beradi. Masalan, 3D tomografiya va magnet-rezonans tomografiyasi (MRI) yordamida ichki organlarning yuqori sifatli tasvirlari olinadi, bu esa jarrohlarga operatsiya rejasini aniq tuzishda yordam beradi.

AI (Sun'iy intellekt) va Machine Learning: Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o‘rganish texnologiyalari diagnostikada yanada kuchli vositalar hisoblanadi. Misol uchun, radiologik tasvirlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt yordamida saraton kabi kasalliklar erta bosqichda aniqlanishi mumkin.

Dijital patologiya: Kasalliklarni aniqlashda raqamli mikroskopiya va tasvirlarni tahlil qilish texnologiyalari kengaymoqda. Bu metodlar patologlarning ishini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi.

2-ko‘chma mashg‘ulot: Xirurgiyada yuqori texnologiyali jarrohlik davolash usullari.(6 soat)

Xirurgiyada subspetsializatsiya – bu tibbiyotning ayrim sohalarda chuqur ixtisoslashishni anglatadi. Bugungi kunda bu yondashuv xirurgiya amaliyotlarining samaradorligini oshirish va murakkab tibbiy holatlarda yuqori sifatli davolashni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Subspetsializatsiya sohasidagi bugungi kun va kelajak talablari quyidagilardan iborat: Murakkab kasalliklarni davolash: Zamonaviy tibbiyotda kasalliklar ko'pincha murakkab va xilma-xil bo'lib, birgina umumiy xirurgning barcha sohalarda chuqur bilimga ega bo'lishi qiyin. Shuning uchun subspetsializatsiya orqali, masalan, neyroxirurgiya, kardiotorasik xirurgiya, travmatologiya, onkologiya kabi alohida yo'nalishlarda mutaxassislar shakllanadi. Bu esa har bir sohada yuqori darajadagi tibbiy yordamni ta'minlash imkonini beradi.

Yuqori texnologiyalardan foydalanish: Kam invaziv jarrohlik, robotik jarrohlik, 3D tasvirlash texnologiyalari va boshqa zamonaviy usullar subspetsializatsiyaga bo'lgan talabni oshirgan. Har bir texnologiya o'ziga xos bilimlarni talab qiladi va bu sohada o'ziga xos mutaxassislarni shakllantirishga sabab bo'ladi.

Individual yondoshuv: Har bir bemor va uning holati o'ziga xos. Subspetsializatsiya orqali xirurglar faqat biror bir kasallik yoki jarrohlik amaliyotining maxsus jihatlari bilan shug'ullanishadi va har bir bemor uchun individual davolash rejasini ishlab chiqishadi.

Tez rivojlanayotgan ilmiy tadqiqotlar: Xirurgiya sohasida ilmiy tadqiqotlar tez rivojlanmoqda. Shuning uchun yangi ilmiy ma'lumotlarga asoslangan subspetsializatsiyalar zarur. Masalan, genetik tadqiqotlar, robotik tizimlar, nanoteknologiya kabi yangi sohalar xirurgiyaning an'anaviy usullaridan ajralib turadi va ularga alohida mutaxassislar kerak.

2024 yil 24 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi hamda Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitalarining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda Sog‘liqni saqlash vazirligining “Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risi”da axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-taomillarini qisqartirish, aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish qamrovini kengaytirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz shu yil 21 may kuni Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishish

jarayonida tibbiyot muassasalari yetarlicha raqamlashtirilmagani sababli sug'urta tizimi to'liq ishlamayotgani, shifokorlarning ko'p vaqti hisobot to'ldirishga ketayotganiga urg'u berildi. Poytaxtimizda sohani raqamlashtirish bo'yicha namunaviy tizim yaratish vazifasi qo'yilib, buning uchun barcha muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanishi aytib o'tildi. Yil yakunigacha "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" tizimlari ishga tushiriladi. Bu o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va qog'ozbozliklarga chek qo'yib, barcha ishlarni tizimli ravishda olib borishga, shifokorlarning bemorlar uchun ko'proq vaqt ajratishiga imkon beradi.

Axborotda keltirilganidek, bugungi kunda 3 645 ta tibbiyot muassasalarining barchasi yuqori tezlikdagi internet tarmoqlariga ulangan. Ambulator muassasalarda 100 foiz lokal tarmoq qurilgan bo'lsa, 23 024 nafar tibbiyot xodimlari kompyuter qurilmalari bilan ta'minlangan. Shuningdek, vazirlik tomonidan Raqamli sog'liqni saqlash yagona platformasini, tibbiyot birlashmalari uchun axborot tizimi bazasini yaratish, tibbiyot birlashmalarini AKT infrastrukturasi va telekommunikatsiya qurilmalari bilan jihozlash, shifokor hamshiralarni bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun 2024-2026 yillarda "Raqamli sog'liqni saqlash islohotlarini qo'llab-quvvatlash" loyihasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda "Elektron poliklinika" axborot tizimining takomillashtirilgan talqini Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanidagi 7-sonli oilaviy poliklinikasida ishga tushirildi. Avvalgi tizimdan farqli o'laroq, ushbu tizimning patronaj xizmati raqamlashtirildi. Qolaversa, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 2 ta davlat xizmatlari ishga tushirilgan. Jumladan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari tibbiy ma'lumotnomasini hamda haydovchilik guvohnomasi uchun talab etiladigan tibbiy ma'lumotnomani onlayn tarzda olish imkoni yaratilgan.

Bundan tashqari, "Tibbiyot" axborot tizimi — mis2.ssv.uz negizida "066-hisobot shakli elektron tarzda rasmiylashtirish moduli" ishlab chiqilib, 066-hisobotida fuqarolarning kasalligiga qo'yilgan tashxis to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda kiritish imkoniyati yaratildi. Muhokamalar davomida deputatlar yurtimizda tibbiyot tizimini raqamlashtirish, xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarni alohida e'tirof etdilar. Shu bilan birga, aholi murojaatlari, joylarda deputatlar tomonidan olib borilayotgan parlament nazorati tadbirlari, saylov okruglaridagi uchrashuvlar jarayonida joylarda bu borada ayrim muammolar kuzatilayotganini qayd etdilar. Muhokamalar davomida tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasida tibbiy ma'lumotlar almashinuvi uchun dasturiy muhit yaratish, sohani davr talablariga moslashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yig'ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitalarning qo'shma qarori qabul qilindi. Yagona elektron tibbiy tarmoq'ini shakllantirishni davom ettirish, raqamli texnologiyalar joriy etilgan tibbiy muassasalari ulushini 70 fuizga etkazish rejalashtirilmoqda.

Shu maqsadda:

Tizimda mavjud tarmoqlar xatlovdan o'tkaziladi.

Xatlov ma'lumotlari asosida tizimning yagona tarmoq infratuzilmasini yaratish bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi.

Loyiha hujjatlari o'rnatilgan tartibda vakolatli organlardan ekspertizadan o'tkaziladi.

Loyixa xarajat manbalari aniqlanib, 3 600 dan ortiq texnik qurilma va litsenziyalar xarid qilinadi.

Hududlar darajasidagi shifoxonalar elektron yo'llanma tizimiga Ulanadi i xamda unda xususiy shifoxonalar ishtirokini kengaytirish bo'yicha choralar ko'riladi.

TIBBIYOTNI O'ZGARTIRADIGAN RAGAMLI TEXNOLOGIYALAR



Biz tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi katta o'zgarishlar ostonasida turibmiz. Ular albatta ro'y beradi va hamma ularga qiziqish bildirmoqda: bemorlar, shifokorlar, tadqiqotchilar, tibbiy oliy o'quv yurtlari talabalari va oddiy iste'molchilar.

«The Next Web» vakili Robert Sherba «The Guide to the Future of Medicine: Technology and the Human Touch» kitobining muallifi doktor Bertalan Mesko bilan texnologik innovatsiyalarning tibbiyot kelajagiga qanday ta'sir qilishi to'g'risida suhbatlashdi. Mesko 11 ta asosiy yo'nalishni belgilab berdi.

1.SALOMATLIKNI GEYMIFIKATSIYALASHTIRISH

O'yinlar hayotimizning ajralmas qismidir, lekin kelajakda sog'liqni saqlashni monitoring qilish dasturlariga o'yin komponentini qo'shib qo'yish bemorlarni har kuni ma'lumot to'plashga va sog'liqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qarorlar qabul qilishga undashga yordam beradi. Meskoning so'zlariga ko'ra, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning yarmidan ortig'i shifokorlarning ko'rsatmalariga amal qilmaydi. Geymifikatsiya qilish bemorning shifokor belgilagan kursdan chetlanishini qiyinlashtiradigan muhitni yaratadi.

2.BEMORLARNING HUQUQLARINI KENGAYTIRISH

Sog'liqni saqlash xizmati shifoxonalardan tashqariga chiqib, bemorlarning o'zlarini anglashlariga va vakolatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ko'pchilik internetdan kasallik belgilarini aniqlab, o'z-o'ziga taxminiy tashxis qo'yish uchun foydalanadi. Sog'lom aql malakali tibbiyot mutaxassislariga murojaat qilish mumkin bo'lgan hollarda bunday qilishni ma'qullamaydi, ammo shifokorlar bemorlarga internetdan ma'lumot olish uchun foydalanishni ham taqiqlay olishmaydi.



Ushbu tendentsiyaga qarshi turishning hojati yo'q, faqat uni to'g'ri yo'naltirish lozim. Yangi texnologiyalar nihoyat tibbiyot xodimlariga u yoki bu axborotni taqdim etish va ba'zi ma'lumotlarni tushuntirishga vaqtini ketkizmasdan bemorni davolashga e'tiborini qaratish imkonini beradi. Shifokorlar o'zlari biladigan va yaxshi bajaradigan ishni qilishlari, ya'ni o'z bilimlaridan foydalanib bemorga

yordam berishlari mumkin bo‘ladi. Doktor Mesko ta'kidlaganidek, agar tibbiy xodimlar bemorlarga o‘zlariga o‘zlari yordam berishini taqiqlasa, sog‘liqni saqlash sohasi oldinga siljiy olmaydi.

3. TELETIBBIYOT VA MASOFADAN PARVARISHLASH

Innovatsion texnologiyalar asosida shifokorlar uyda yoki nazorat ostida davolanayotgan bemorlar bilan muloqotda bo‘lishlari mumkin. Bu nafaqat vaqtni, balki pulni ham tejash imkonini beradi. Bemorning muolajadan oldingi, muolaja vaqtidagi va muolajadan keyingi ahvolini nazorat qiluvchi robotlashtirilgan avtonom yechimlar mavjud.

4. TIBBIY TA'LIMNI QAYTA KO'RIB CHIQISH

Tibbiyot institutlari shifokorlarni «elektron» bemor va yuqori texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashadi. Mutaxassislarni o‘qitish uzoq vaqt talab etadi va shuning uchun ham talabalar o‘rganayotgan tajribalar bitiruv vaqtiga kelib eskirib qolmoqda. Darsliklarning o‘rnini raqamli sinflar egallashi kerak, bu o‘z navbatida talabalar va amaliyotdagi shifokorlar o‘rtasidagi muloqotni ta'minlaydi hamda dolzarb axborot va resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.



5. XIRURGIK VA ODAMSIMON ROBOTLAR

Zamonaviy robotlar jarrohlarning imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi, ular operatsiyalarni yuqoriroq aniqlikda va kamroq jarohat yetkazgan holda o‘tkazishga qodir. Robotlar hech qachon odamlarning o‘rnini bosolmaydi, lekin shifokorlar ularni o‘z ishlarida tez-tez ishlatadigan bo‘ladilar.

6. GENOMIKA VA PERSONALLASHTIRILGAN TIBBIYOT

Kelajakda DNK tahlillari tashxis qo‘yish va muolaja tayinlashda oddiy protseduraga aylanadi. Shu orqali shifokorlar bemor organizmining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda unga dori-darmonlar to‘g‘ri belgilanganini kafolatlashlari mumkin.

7. KIYILADIGAN DATCHIKLAR

Zamonaviy texnologiyalar sizga muhim tibbiy ko'rsatkichlarni arzon va qulay usullarda o'lchash imkonini beradi. Ixchamgina sensorlar bemorlarni kundalik faoliyatidan chalg'itmasdan kerakli ma'lumotlarni to'playdi. Bunday ma'lumotni yig'ishning bir usuli kerakli datchiklar bilan jihozlangan elektron kiyim kiyib yurishdir.



8.TIBBIY TRIKODERLAR VA PORTATIV TASHXIS

«Star Trek» ilmiy-fantastik serialidagi to'qima gadjet tez orada haqiqatga aylanadi. Siz turli xil diagnostik jarayonlarni amalga oshirish uchun klinikalarga borishingiz shart emas – barchasini uyda o'tirib, ixcham qurilmalar yordamida amalga oshirish mumkin. «Smartfon tibbiy asboblari paneli sifatida tibbiyot markaziga aylanadi», — deydi doktor Mesko.

9.DIY biotexnologiyalari

Mavjud texnologiyalar va DIY ruhiyati muhandis va olimlarning yangi avlodini yaratadi. Butun dunyo bo'ylab biolaboratoriyalar paydo bo'lib, o'zida ixtirochilarni, tajriba va kashfiyotlarni yaxshi ko'radiganlarni birlashtiradi. Biotexnologiyadagi innovatsiyalar kelajak tibbiyotini butunlay o'zgartirib yuborishga qodir bo'ladi.

10.3D-CHOP ETISH INQILOBI

3D-printerlar yordamida tibbiy asboblari, protezlar va hatto dorilarni ham yaratish mumkin. Printerlar, shuningdek, regenerativ tibbiyotda ham muhim rol o'ynab, mutaxassislariga qon tomirlari, suyak, yurak klapanlari, to'qimalar, sun'iy teri va hatto organlarni yaratishga yordam beradi. Mazkur amaliyotlar taraqqiy etib borishi sababli 3D-chop etish katta foyda keltirishi mumkin.



11.MEXANIZATSIYALASHGAN EKZOSKELETLAR VA ENDOPROTEZLAR

Ekzoskeletli kiyimlar shol odamlarga yana yurish imkoniyatini bergan bo‘lardi. Mazkur kiyim sezgini qayta tiklash, protezga real vaqtda miya bilan aloqa bog‘lash imkonini beradi. «Hozircha esa, — deydi doktor Mesko, — bunday narsalarni ishlab chiqaruvchilar uchun katta muammo inson qo‘li va oyoqlarining murakkab harakatlarini to‘g‘ri takrorlay oladigan qurilmalarni yaratishdir».



**TIBBIYOTDA IOT-TEKNOLOGIYALAR: INSONIYAT UMRINI
UZAYTIRISH IMKONI JUDA YAQIN**



Bugun IoT-texnologiyalarga asoslangan juda ko‘plab loyihalar tibbiyot bilan bog‘langan. Biz ularning bir necha eng qiziqarli va muhimlari haqida yozishga qaror qildik.

NARSALAR INTERNETI BARCHASINI O‘ZGARTIRADI

Zamonaviy tibbiyot so‘nggi o‘n yilliklarda ilgari erishib bo‘lmaydigan darajaga ko‘tarildi. Bugungi sog‘liqni saqlash tizimi, bu — bir paytlar umidsizlikka tushgan bemorlar hayotini saqlab qolayotgan transplantologiya va travmatologiya, plastik jarrohlik va onkologiya, neyrojrohlik, oftalmologiya, ginekologiya va boshqa sohalardan iborat yuqori texnologik tarmoqqa aylandi.

Tibbiyot muassasalari texnik asbob-uskunalarining sezilarli yaxshilanishi natijasida kasalliklarni dastlabki bosqichidayoq to‘g‘ri tashxislash va bemor ish qobiliyatini qisqa muddatlarda tiklash imkoniyati paydo bo‘ldi. Muolajalar davomida odatiy endoskopik apparaturalar, mikrojarrohlik va ko‘rish qobiliyatining lazer korrektsiyasi, organ va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish kabilardan foydalanish turli tug‘ma va orttirilgan nuqsonlarni tuzatishda oddiy holga aylandi. Ammo, ayrim muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Va ularni hal etish uchun narsalar interneti (Internet of Things – IoT) yordamga keladi.

BEMORLARNI ROBOTLAR DAVOLAYDI

Tibbiyot va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish narsalar internetining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda alohida atamalar ham mavjud – masalan, «Tibbiy ashyolar interneti» yoki «Narsalar interneti va sog‘liqni saqlash».

Tadqiqotchilar xomcho‘ti bo‘yicha, bir necha yildan so‘ng ushbu bozor hajmi taxminan 117 milliard dollarni tashkil qilgan ekan.

Demak, bu 2020 yilga borib, odamlarni bemor holati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan robotlar davolaydi, deganimi? Yo‘q, unday emas. Davolash bilan avvalgidek markazlashgan holda mutaxassislar – shifokorlar va tibbiyot xodimlari shug‘ullanishadi. Narsalar interneti faqat ular ishini samarali bo‘lishiga yordam beradi. Hali bu texnologiyalar dunyo bo‘yicha kam qo‘llanilyapti, rivojlangan mamlakatlarda, asosan, AQShda keng tatbiq etilgan.

KUZATUVCHI BEYJIKLAR

«Florida Hospital Celebration Health» sakkiz yildan buyon klinika bo‘yicha xodimlar va bemorlarni kuzatuvchi beyjiklardan faol foydalanib kelmoqda. Tibbiyot xodimlari harakatini kuzatish orqali, barchaga qulay bo‘lishi uchun, klinika ishini tashkillashtirish, masalan, dori-darmon zaxirasidan iborat shkaflarni qayerga joylashtirish ma‘qulligini tahlilchilar yaxshi tushunishadi. Klinika ma‘muriyati ma‘lumotlar yordamida u yoki bu sanitar yoki hamshirani muntazam kuzatib, o‘z ishidan batamom charchaganlarini oldindan aniqlashi mumkin hamda ularga ishini biroz o‘zgartirishni, masalan, qayta tayyorlash kurslariga borishlarini vaqtda taklif qila oladi.

Beyjiklar klinika bemorlariga ham beriladi. Qarindoshini ko‘rgani shifoxonaga kelgan odamlar doim elektron tabloni kuzatib, bemori ayni damda qayerda — jarrohlik xonasida, palatada yoki boshqa joyda ekanligini bilib olishi mumkin. Tablodagi ma‘lumotlar bemor familiyasi qarshisida paydo bo‘ladi.

Ba‘zi klinikalarda beyjiklar tibbiy inventarlarga ham yopishtirib qo‘yiladi. Bu orqali zarur buyumlar, masalan, defibrillyatorlar, infuzion nasoslar va aravachalarni kerakli paytda darhol topish mumkin.

«EICU» — ELEKTRON PALATA

Amerikaning ko‘plab shifoxonalarida sutkasiga 24 soat va haftasiga yetti kun navbatchilik qila oladigan reanimatologlar yetishmaydi, aniqrog‘i, mamlakatda shuncha mutaxassisning o‘zi yo‘q. Shu bois, AQShda intensiv terapiya elektron palatasi – «eICU» joriy etilgan. Og‘ir bemorlarni masofaviy kuzatuvchi bu monitoring markazi yuzlab kilometr masofadagi yuzlab bemorlar uchun birato‘la xizmat ko‘rsata oladi. Bemor krovatidagi monitoring uning ahvoli haqidagi ma‘lumotlarni markaz navbatchi reanimatologiga avtomatik tarzda yuboradi.

Mabodo jiddiy vaziyat yuzaga kelsa – trevoga signali chalinadi. Yuqori tasvirli kameralar bilan jihozlangan palatalarda bemor diqqat bilan ko‘rikdan o‘tkaziladi. Reanimatolog ovozli aloqa yordamida bemorga yaqin joylashgan xodimlarga ko‘rsatmalar berishi mumkin, ya‘ni u qaror qabul qiladi, hamshira va

sanitarlar qarorni bajarishadi. Tadqiqotlar bu kabi markazlar o'lim darajasini kamaytirishga hamda tibbiyot xodimlari uchun xarajatlarni qisqartirishga yordam berishini ko'rsatmoqda.

TARAQQIYOT YO'LIDAGI MUAMMOLAR

Ayni damda tibbiyot muassasalari keng ko'lamli turli vazifalar, masalan, ish samarasini oshirish uchun xodimlarni doimiy ishga qabul qilish, iqlim me'yorlarining uzluksiz nazoratini olib borish, shuningdek, bemorlar jismoniy ko'rsatkichlarini kuzatish singari IoT datchiklari ishlab chiqaradigan katta hajmdagi ma'lumotlar muammolari bilan to'qnash kelmoqda. Va bu muammolarning barchasi — atrof-muhit parametrlarini doimiy va uzluksiz nazorat qilish va hisoblab borishni amalga oshirish, texnologik jarayonlar, bemorlar, xodimlar va boshqa tibbiy asbob-uskunalar maqomi va holati, tibbiy ma'lumotlar «xomashyosi» va turli manbalardan olingan tadqiqotlar natijasini qayta ishlash hamda kerakli axborotni sxema, grafika, jadvallar, ma'lumot ekranlari shaklida topshirishning kompleks yechimlari yo'qligi kabi umumiy sabablarga ega.

ODDIY ODAMLAR

Ko'plab keksa odamlar xotira va fikrlashning buzilishi bilan to'qnash keladilar, masalan, Altsgeymer xastaligida. Ushbu kasallikka chalinganlar ayrim hollarda o'z yo'nalishlarini topishda qiynalishadi – tunda xonasi yoki palatasidan chiqib, nima bo'layotganini anglamagan holda bino atrofida tentirab qolishadi. Bu kabi holatlarda ular yiqilib jarohat olishlari mumkin. Shu bois, ularning yaqinlari tez-tez uyqu yo'qotishadi – doim bemordan xavotirlanib tong otirishadi.

O'n olti yoshli Kennet Shinokuza taklif qilgan ilovani «tibbiy buyumlar interneti» qatoriga kiritgan holda shu singari bemorlarga yordam sifatida taqdim etsa bo'ladi. Gap shundaki, u ruhiy kasallikdan qiynalayotgan inson paypog'iga yopishtirib qo'yiladigan datchik ixtiro qildi. Bemor qachonki o'rnidan tursa, qarindoshining smartfoniga ovozli signal keladi. Shuningdek, Altsgeymer kasalligiga chalinganlarga g'amxo'rlik qilish uchun insonni xaritada topib beruvchi, uncha katta bo'lmagan ratsiyaga o'xshab ketadigan GPS qurilmasidan foydalanilmoqda.

YOLG'IZ KEKSALARGA YORDAM

Temboo kompaniyasi keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, AQShda keksa yoshli odamlar farzandlari bilan emas, balki ko'proq mustaqil yashashni istashmoqda. Ammo, ular doimiy ko'makka muhtoj. Yolg'iz yashayotgan ota-onalari, yaqinlaridan xavotirlanayotgan odamlar uchun ushbu kompaniya maxsus qurilma ishlab chiqdi. Qurilma krovatga o'rnatiladigan harakat datchigi va mikrofondan iborat. Datchik qariyaning harakatlari haqida ma'lumot to'playdi va odatiy

namunalarini ajratadi – agar nimadir birdan o‘zgarsa, uning farzandi yoki qarindoshi smartfoniga bu haqda xabar yuboradi. Mikrofon esa qariyaning yordam chaqirishi uchun kerak.

Shunday qilib, tibbiyotda narsalar interneti kabi innovatsion texnologiyalar asta-sekin bizning real hayotimizga kirib bormoqda va sog‘liqni saqlashdagi ko‘plab muammolarni hal qilyapti. Bularning bari nafaqat hayotimizni saqlab qolish, balki yaqin kelajakda insonning o‘rtacha umr kechirish ko‘rsatkichini oshirish imkonini beradi.

V. GLOSSARIY

TERMIN	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
ANGIOGRAFIYA	Oshqozon hazm tizimida qon ketishni aniqlash ilojini beruvchi instrumental rentgenologik tekshirish turi	X-ray inspection tool that allows you to detect bleeding in the gastrointestinal tract.
ANOSKOPIYA	Anoskop yordamida tekshirish usuli	research that is carried out using a special instrument - anoscope
ARTROSKOP	Bo‘g‘in bo‘shlig‘ini tekshirish uchun asbob	device inserted into a joint to its inspection
ARTROSKOPIYA	Endoskop yordamida bo‘g‘in bo‘shlig‘ini tekshirish va amaliyot bajarish	research and operations in the joint cavities rigid endoscope
BERNSHTEYN TEST	Kislotani oshqozondan qizilo‘ngachga tushganini tekshiruvchi sinama	test to determine whether heartburn caused by acid gets into the esophagus from the stomach
BIOPSIYA	Analiz uchun to‘qimadan sinama olish	taking a piece of tissue for analysis
VENTRIQO‘LOSKOPIYA	Miya oshqozonchalarini tekshirish usuli	the study of the brain ventricles via fiber optical devices
VIDEOLAPAROSKOP	Videokamera, laparoskop, yorituvchi va nurli asbob	device that combines a video camera, a laparoscope, lighting, optical fiber
GASTRODUODENOSKOPIYA	Endoskop yordamida oshqozon va un ikki barmoqli ichak bo‘shlig‘ini tekshirish	Method antrum and duodenum examination using an endoscope
GISTEROSKOP	Maxsus nurlar bilan moslashtirilgan asbob	hollow instrument, equipped with a special lighting device
GISTEROSKOPIYA	Bachadon ichini endoskopik tekshirish va muolajalar o‘tkazish	endoscopic research, medical and surgical manipulation into the uterine cavity
DEFEKOGRAFIYA	Anorektor sohani tekshirish usuli, defekatsiya jarayonini ko‘rsata berishi mumkin	X-ray of the anorectal area, reflecting the full value of the act of defecation
KOLONOSKOPIYA	Yo‘g‘on ichakni ko‘rish uchun tekshirish usuli	study, in which the doctor can see the colon throughout

KOLOREKTAL PASSAJNI TEKSHIRISH	YUgon ichakdan passaj jarayonini ko'rib bera oladigan tekshirish usuli	test to determine how food moves through the large intestine
LAPAROSKOP	Qorin bo'shlig'ini tekshirish uchun qo'llaniladigan kamera bilan moslashgan naycha	a long, thin tube equipped with an optical camera to examine the inside of the abdominal organs
LAPAROSKOPIYA	Laparoskopiya yordamida tekshirish o'tkazish	study using a laparoscope
LARINGOSKOP	Hiqildoqni tekshirish uchun moslama	instrument for the study of the larynx
LARINGOSKOPIYA	Hiqildokni tekshirish	laryngeal examination
JIGAR TESTLARI	Jigar va o't yo'llarini faoliyatini baholovchi qon tahlillari	blood tests to help you determine how well the work the liver and biliary system
PROKTOSIGMOIDOSKOPIYA	To'g'ri va sig'masimon ichakni endoskopik tekshirish usuli	endoscopic examination of rectum and sigmoid
PROKTOSKOP	To'g'ri ichakni endoskopik tekshirish uchun uskuna	endoscopic instrument, which is a solid short pipe that is used to study the area of the anus and rectum
PROKTOSKOPIYA	To'g'ri ichakni endoskopik tekshirish usuli	endoscopic examination of the rectum
REZEKTOSKOP	Endoskop turi	kind of endoscope
SIGMOIDOSKOPIYA	YUgon ichakni ichini tekshirish endoskopik usuli	diagnostic endoscopy of the inside of the colon
XOLANGIOGRAFIYA	O't yo'llarini tekshirish	biliary tract study
XOLANGIOPANKREATOGRAFIYA ENDOSKOPIK RETROGRAD	Oshqozon osti bezi va o't yo'llarini tekshirish iloji beruvchi usul	study bile ducts and pancreas
TERI ORQALI JIGAR ORQALI XOLANGIOGRAFIYA	O't yo'llarini tekshirish rentgenologik usuli	X-ray examination of the gallbladder and bile ducts
EZOFAGOGASTRODUODENOSKOPIYA	Oshqozon, qizilungach, 12 barmoq ichakni tekshirish usuli	study to identify esophageal diseases, gastric or duodenal ulcers

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Maxsus adabiyotlar

1. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2019, 29-30 march.

2. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2020. – с.185-197.

1. Gudestanging Eurgical Discase he Miami Manual of Eurgeri cippin Rowen Publisher 2020

2. Tomas K. General surgery. -2011.-683 p.

3. Clinic group information. Practical skill of surgery. -2019.-864 p.

4. Blood Groups and Red Cell Antigens. Laura Dean. National Center for Biotechnology Information (NCBI), National Library of Medicine, National Institutes of Health, Bethesda, MD 20892-6510,

5. Bethesda (MD): National Center for Biotechnology Information (US); 2019.Kinston P. How will you to study of surgery? -2020.-112 p.

6. TYLER, MD, Creighton University School of Medicine, Omaha, Nebraska. Am Fam Physician. 15;83(6):719-724.

7. Hébert PC, Wells G, Blajchman MA, et al. A multicenter, randomized, controlled clinical trial of transfusion requirements in critical care. Transfusion Requirements in Critical Care Investigators, Canadian Critical Care Trials Group [published correction appears in N Engl J Med. 2021;340(13):1056]. N Engl J Med. 2019;340(6):409–417.

8. Lacroix J, Hébert PC, Hutchison JS, et al.; TRIPICU Investigators; Canadian Critical Care Trials Group; Pediatric Acute Lung Injury and Sepsis Investigators Network. Transfusion strategies for patients in pediatric intensive care units. N Engl J Med. 2020;356(16):1609–1619.

9. King KE, Bandarenko N. Blood Transfusion Therapy: A Physician's Handbook. 9th ed. Bethesda, Md.: American Association of Blood Banks; 2017:236.

10. Klein HG, Spahn DR, Carson JL. Red blood cell transfusion in clinical practice. Lancet. 2019;370(9585):415–426.

11. Ferraris VA, Ferraris SP, Saha SP, et al. Perioperative blood transfusion and blood conservation in cardiac surgery: The Society of Thoracic Surgeons and the Society of Cardiovascular Anesthesiologists clinical practice guideline. Ann Thorac Surg. 2020;83(5 suppl): S27–S86.

12. Carless PA, Henry DA, Carson JL, Hebert PP, McClelland B, Ker K. Transfusion thresholds and other strategies for guiding allogeneic red blood cell transfusion. *Cochrane Database Syst Rev.* 2010;(10):CD002042.

13. Norman Williams. Bailey Loves. Short practice of surgery. 26th edition. 2022-u. 451 p.

14. Holland LL, Brooks JP. Toward rational fresh frozen plasma transfusion: the effect of plasma transfusion on coagulation test results. *Am J Clin Pathol.* 2019;126(1):133–139.

15. Liumbruno G, Bennardello F, Lattanzio A, Piccoli P, Rossetti G; Italian Society of Transfusion Medicine and Immunohaematology (SIMTI) Work Group. Recommendations for the transfusion of plasma and platelets. *Blood Transfus.* 2020;7(2):132–150.

16. Oxunov A.O. Umumiy jarrohlik. - Toshkent, 2020 yil - elektron darslik

17. Oxunov A.O. umumiy xirurgiya. - Tashkent, 2021 – elektron darslik

Elektron ta'lim resurslari

1. www.med.knig.biz/index.php
2. www.tgma.ru/formation/kafedra.vulnus.htm
3. www.bookmed.ru/illustrated.php
4. www.shop.medicinform.net/showtov.asp
5. www.surgeryinfection
6. www.generalsurgery
7. www.tma.uz
8. www.edu.uz
9. <http://edu.uz>
10. <http://lex.uz>
11. <http://bimm.uz>